XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2023 - yil 15 - noyabr VI-62-152-8-108-K/23 Oltinsoy tuman hokimligi

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining “Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2023- yilning I va II choragi daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi mablag‘lari hisobidan tegishli qarorlariga asosan ajratilgan va ishlatilmay qolgan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarib olish va qaytarib olingan mablag‘ni ajratish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonunining 13-moddasiga asosan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning axboroti eshitilib, bildirilgan takliflarni inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining "Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonunining 20-moddasi ijrosini ta’minlash maqsadida tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning axboroti Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 16-maydagi VI-58-86-8-108-Q/23-sonli qarori hamda hamda 2023-yil 1-oktabdagi VI-49-203-8-108-Q/22-sonli qarorlariga asosan asosan, tuman hokimiyatiga rangli printer olish uchun 10 500 000 so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga mahallalardagi hokim yordamchilarini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlash uchun 107 000 000 so‘m, tuman hokimligiga mahallalardagi xotin-qizlar faolini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlash uchun 123 000 000 so‘m, tuman hokimiyatinining hojatxonasini joriy ta’mirlash uchun 10 500 000 so‘m, tuman Soliq inspeksiyasiga yangi xojatxona qurishga kerak bo‘ladigan qurilish materiallari sotib

olish uchun 127 000 000 so‘m, tuman hokimiyatiga Taxiatosh tumanida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarida tovar-moddiy boyliklaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun 55 000 000 so‘m hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi 46-son farmoni bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish uchun 2 (foizi) 50 000 000 so‘m, jami 483 000 000 so‘m ishlatilmay turgan mablag‘ni tuman mahalliy budjetiga qaytarib olinsin.

3.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Abdurayimov) hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Saidaxmedov) birgalikda:

Belgilangan tartibda tuman mahalliy budjetiga qaytirib olingan 483 000 000 so‘m mablag‘ni quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilsin.

-tuman hokimiyatining ma’muriy binosini qo‘riqlash xizmatiga 60 000 000 so‘m,

-tuman hokimiyatiga E-qaror platformasidan foydalanish uchun 12 000 000 so‘m;

-tuman hokimiyatiga maxsusaloqo xizmati uchun 15 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga hokimlikning xizmat avto-mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun 91 260 000 so‘m;

-tuman hokimligiga hokimlikning xizmat avto-mashinalariga yoqilg‘i olish uchun 20 000 000 so‘m;

- tuman hokimiyatining tovar moddiy zahira olish uchun 15 000 000 so‘m;

-tuman hokimligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-mart PF-45-son Farmoniga asosan tuman hokimligi Axborot xizmati bosh mutaxassisi va texnik xodim shtat birligining saqlash xarajatlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 22 500 000 so‘m;

- “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-92-sonli qaroriga asosan mahallalarda faoliyat yuritayotgan “Keksalar maslahati” guruhlari rahbarlari Oripov Ashur va Qarshiyev Muzaffar Mirzaxmadovichlarni rag‘batlantirish uchun 5 240 000 so‘m;

-Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi kotibiyati xodimlariga oylik maoshiga qo‘shimcha ustama to‘lovlarini to‘lash uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 15 000 000 so‘m;

- tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limiga tumandagi mahalla fuqaro yig‘inlariga (elektr xisoblagichlar) sotib olish uchun 23 000 000 so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga Bo‘ston mahalla fuqarolar yig‘ini piyodalar yo‘lakchasidagi arkolarni ta’mirlash maqsadida tunikafon mahsulotlari sotib olish uchun 70 000 000 so‘m:

-tuman hokimligiga uch avlod uchrashuvi tadbirlaridan yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun 50 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga “3-dekabr kuni Xalqaro nogironlar kuni” bayramini ko‘tarinki ruxda o‘tkazish uchun 30 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga Avtomabil xaydovchilari kuni munosabati bilan tuman hokimligi xaydovchilarini taqdirlash uchun 20 000 000 so‘m;

- Tuman hokimligi orqali Ichki ishlar bo‘limining tadbir xarajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun 25 000 000 so‘m;

- Tuman soliq inspeksiyasi rahbarini rag‘batlantirish masadida oylik maoshiga qo‘shimcha ustama to‘lovlarini to‘lash uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun 9 000 000 so‘m pul mablag‘lari ajratilsin.

4.Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan tuman hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5.Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Q.Turdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.O.Maxmatrayemov**